

MUHAMMAD YUSUF SHE‘RIYATIDA KONNOTATIV MA‘NONING METOFARA ORQALI IFODALANISHI

Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Saparova Dinora

Annotatsiya: *Bu maqolada Muhammad Yusuf she‘rlarida qo‘llangan metaforalarning o‘ziga xos jihatlari haqida yozilgan. O‘zbek she‘riyatidagi aksariyat she‘rlarda metafora unumli qo‘llanilib, she‘rni jozibasini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi. O‘zbek she‘riyatida Muhammad Yusuf ham o‘z she‘rlarida metaforadan unumli foydalangan, she‘rlari esa xalqimiz qalbidan mangu joy egallagan.*

Kalit so‘zi: *Konnotativ ma‘no, metafora, she‘r, badiiylik, emotsional-ekspressivlik.*

O‘zbekiston xalqning eng suyuqli va ardoqli shoiri Muhammad Yusuf she‘rlari jozibadorligi, o‘ynoqiligi, o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Bu shoirning metafora qo‘llash va yaratish borasidagi mahoratida ham yorqin kuzatiladi. U o‘zining she‘rlarida konnotativ ma‘no chiroyli qilib tasvirlab bergan. Ayniqsa, shoir ijodida konnotativ ma‘noning metafora orqali hosil bo‘lishini tasvirlab bergan. leksik ma‘no taraqqiyotini ko‘rsatuvchi til hodisasi bo‘lib, so‘zlarning ko‘chma ma‘nosi asosida yaratiladi.

So‘zlarda ikki xil ma‘no turi mavjud bo‘lib, birinchisi o‘z ma‘no, ikkinchisi esa ko‘chma ma‘no deb yuritiladi. Birinchi ma‘no turiga keladigan bo‘lsak, o‘z ma‘no so‘zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir ma‘noni anglatganda bu o‘z ma‘noli so‘z deyiladi. Agar yakka holdagi ma‘nosi bilan matn ichidagi ma‘nosi ikki xil bo‘lsa unda bu so‘z matn ichida ko‘chma ma‘noda qo‘llanayotgan bo‘ladi. Konnotativ ma‘no she‘rning emotsional-ekspressivlikini va kitobxon qalbiga tez yetib borishi uchun ham qo‘llanadi. Konnotativ ma‘noning asosiy ko‘rinishlaridan biri deyarli juda ko‘p qo‘llanadigan turi – bu metafora hisoblanadi. Metafora (yunoncha metaphora- ko‘chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma‘lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir. Ko‘proq tashqi o‘xshashlik asosiga quriladi. Ko‘chimning keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan Muhammad Yusuf she‘rlarida metaforaning go‘zal ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Metafora orqali ko‘chish sifat va fe‘l turkumida ko‘p uchraydi. Masalan: Salim ota bugun hamma qarzini uzadi. (konnotativ ma‘no, ya‘ni metafora). Salim ota uzun ipni uzdi. (denotativ ma‘no). Bu kabi ikki gaoda uzdi so‘zi orqali metafora hosil qilingan. Hayotda haqiqatdan ipni uzish mumkin. Lekin qarzni uzib bo‘lmaydi bu yerda ko‘chma ma‘noda qo‘llangan bo‘lib batamom qutilish ma‘nosini ifodalagan. Metafora narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida nom (so‘z)ning ko‘chishidir. Metafora (yunoncha metaphora- ko‘chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma‘lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir

Bedapoya to‘ridagi juftin qidirib,

Sayray- sayray limib qoldi bedana dilgir.

Suvsumbulni va‘dasiga ko‘mib, ko‘ndirib,

O‘ynatgani olib ketdi irmoq qaygadir.

(Muhammad Yusuf. ”Manzara”)

Suvsumbulni va‘dasi, o‘ynatgani olib ketdi irmoq kabi xususiyatlar insonlarga xos bo‘lib, shoir ularni suvsumbul va irmoqqaqa ko‘chiradi. Bu holat bilan shoir shunchaki tabiat manzarasining tasvirini emas, balki inson qalbi tomonidan qabul qilinishi ifodasi sifatida berilgan. Bunda inson faqatgina kuzatuvchi emas, balki ona tabiatning hamdardi, jonkuyari dardkashi sifatida jonlanadi va bu tuyg‘ularning barchasi inson qalbiga, ruhiyatiga ko‘chadi.

Muhammad Yusuf ijodida bu kabi holatlarni, ya‘ni jonsiz narsalarga xos xususiyatlarni insonga ko‘chirish usulidan unumli foydalangan. Biz bilamizki, va‘da berish, o‘ynatib kelish kabi xususiyatlar insonga xos bo‘lib shoir badiiy-estetik jilo yaratib, ularni xuddi jonli insonlar kabi gavdalandirgan. Bu yerda o‘ynatmoq fe‘li orqali orqali metofarik ma‘no ta‘sirchan ifodalangan.

Bir intervyusida Muhammad Yusuf ayoli shunday degan: “Bir kuni qizim Nozima yugurib dadasining xonasiga kirib, tizzasiga o‘tirib olgan. Kutilmaganda ota o‘ziga kelib, qizchamizga ilkis ovozi ko‘tarib yuborgan. Nozima qo‘g‘irchog‘ini ko‘tarib, xo‘mrayib chiqib ketgan. Men yugurib kirganimda, Muhammad aka ruchkasini shart sindirib, menga qaradi. Ko‘zlarida jiqqa yoshni ko‘rib, o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Bir ozdan so‘ng uydan chiqib, Nozimani ko‘tarib oldi-da, yuzlaridan o‘pib, erkalab, undan kechirim so‘radi. Kechasi esa yana ijodga sho‘ng‘idi. Sahar chog‘i ular uxlashga yotganida men sekin ish kabinetiga kirib, stoliga qaradim va nihoyat she‘r yozilganini ko‘rdim. Uni o‘qir ekanman, ko‘zlarimdan tirqirab yosh quyildi. Bu she‘r kechagi holatning mahsuli edi”. Buning natijasida bu she‘r yaralgan ekan.

Burchak- burchakdan jim tortishar burun.

Bilmam qanday o‘y-u xayol ichida.

Tuzsiz she‘rlarim deb shirindan - shirin

Bolalarim yurar oyoq uchida..

(M. Yusuf “Nozimaga”)

Bu she‘r bag‘ishlov tarzida bo‘lib qiziga bag‘ishlab yozgan. O‘zing she‘r yozish jarayonida bo‘ladigan holatlarni farzandlari tomonidan qilinadigan xatti-harakatlar chiroyli qilib oddiy va samimiy so‘zlari bilan chiroyli she‘r yaratgan. Bu misralarda shoir sifat so‘z turkumi yordamida ifodalangan metofarik ko‘chimdan foydalangan. Biz bilamizki, shirin so‘zi maza- ta‘m bildiruvchi sifat bo‘lib emas, balki bu yerda o‘z ma‘nosidan chekingan holda boshqa bir konnotativ ma‘no ifodalagan. Konnotativ ma‘no orqali kuchli emotsional-ekspressivlik, bo‘yoqdorlik foydalangan. Ya‘ni maza-ta‘m sifati emas, xususiyat sifati hosil qilingan. Bu ham she‘rning metaforik usulda ma‘no ko‘chisi yuz bergan. Bu kabi konnotativ ma‘nolar she‘rning ta‘sir kuchini va estetik-badiiy qiymatini ham oshiradi.

“Shirindan – shirin bolalarim”, tuzsiz she‘rlarim kabi so‘z birikmalarida konnotativ ma‘noning metofara usulida ifodalangan. Bollarning shirin ekanligi tatib bilmaymiz, faqat ularning eng go‘zal xususiyatlariga nisbat bergan holda ishlatamiz. Hayotda har bir narsa o‘zi bajaradigan vazifa bilan muhimdir. Bu yerda ham ovqat tuzsiz bo‘lmasligi shu bilan ovqat totli bo‘lishi mumkinligini bilamiz. Tuzi yo‘q ovqat totsiz bo‘lishi holatini shoir konnotativ ma‘no orqali go‘zal tarzda ifodalab bergan. Shoir tuzsiz she‘rim deya hech qanday ma‘no mazmuni yo‘q bo‘lgan she‘rlarini nazarda tutgan. Bu orqali metaforani sifat so‘z turkumi yordamida ifodalab berganini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi vositalar she‘rning kitobxonlik darajasini ham oshiradi.

Kelaman bittalab terib loy yo‘ldan

Oltin yoshligimning suratlaridan

O‘rdaklar uchadi og‘rinib ko‘ldan

Oftobga tutgali ho‘l patlarini.

Bu she‘rda ham konnotativ ma‘noning go‘zal namunasini uchratamiz. Metafora orqali ko‘chgan so‘z “Oltin yoshligim” birikmasi hisoblanadi. Yoshlik bu inson hayoting eng unutilmas, eng go‘zal, eng baxtli damlari bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham shoir yoshlikni oltinga o‘xshatib tasvirlagan. Oltin ham o‘zining qiymati bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu kabi konnotativ ma‘nolarni shoirning har bir she‘rida uchratishimiz va har biri o‘zining xususiyati bilan ajralib turishini ko‘rishimiz mumkin. Metaforalarni shu darajada chiroyli qilib qo‘lash ham bir san‘atdir. Bu san‘atni o‘zining o‘tkir qalami bilan chizib bergan badiiylik yaratgan shoirdir.

Xulosa qilishimiz mumkinki, o‘zbek she‘riyatidagi aksariyat she‘rlarda metafora unumli qo‘llanilib, she‘rni jozibasini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi. O‘zbek she‘riyatida Muhammad Yusuf ham o‘z she‘rlarida metaforadan unumli foydalangan, she‘rlari esa xalqimiz qalbidan mangu joy egallagan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilmurod Quronov, “Adabiyot nazariyasi asoslari”. Toshkent “Navoiy universiteti” 2018
2. Muhammad Yusuf she‘riy to‘plamlari Toshkent, 2023.
3. H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik. “Talqin” nashriyoti. 2005.
4. Мухдммад Юсуф. Сайланма. Тошкент, 2004.
5. N. Jiyanova. O'zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent, 2018-yil.
6. O‘zbek tili va pragmalingsvistika-- Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2008.